



“VAQT” KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI BO‘YICHA NAZARIYALAR TAHLILI

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

o‘qituvchisi Sobirova Shahzoda Faxriddin qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

talabasi Urolova Zavra Avaz qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi “vaqt” konseptining lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Konsept insonning dunyoni idrok etish natijasida shakllangan mental birlik sifatida ko‘rib chiqiladi, uning tilda ifodalanish vositalari — leksik birliklar, frazeologizmlar, maqol va matallar, metaforik konstruksiyalar — kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida o‘zbek xalq tafakkurida “vaqt” konseptining o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari, uning boshqa xalqlar tilidagi tasviridan farqli jihatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: konsept, lingvokognitologiya, vaqt konsepti, kontseptual metafora, frazeologizm, milliy dunyoqarash, tilning kognitiv tabiati, konseptual maydon.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвокогнитивные особенности концепта «время» в узбекском языке. Концепт рассматривается как ментальная единица, сформированная в результате восприятия человеком окружающего мира. С позиций когнитивной лингвистики анализируются средства его языковой репрезентации — лексические единицы, фразеологизмы, пословицы и поговорки, метафорические конструкции. В результате исследования выявлены национально-культурные особенности концепта «время» в узбекском народном сознании, а также его отличительные черты по сравнению с представлением данного концепта в языковой картине мира других народов.

Ключевые слова: концепт, лингвокогнитология, концепт «время», концептуальная метафора, фразеологизм, национальное мировоззрение, когнитивная природа языка, концептуальное поле.

Abstract. This article analyzes the linguocognitive features of the concept of “time” in the Uzbek language. The concept is regarded as a mental unit formed as a result of human perception of the world. From the perspective of cognitive linguistics, the linguistic means of its representation — lexical units, phraseological expressions, proverbs and sayings, and metaphorical constructions — are analyzed. The study identifies the specific national and cultural characteristics of the concept of “time” in Uzbek folk consciousness, as well as its distinctive features in comparison with the representation of this concept in the languages of other peoples.

Keywords: concept, linguocognitology, concept of “time”, conceptual metaphor, phraseological expression, national worldview, cognitive nature of language, conceptual domain.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida kognitiv lingvistika alohida o‘rin egallaydi. Bu yo‘nalish doirasida til nafaqat aloqa-aralashuv vositasi, balki insonning dunyo haqidagi bilimlarini saqlash, qayta ishlash va uzatish mexanizmi sifatida o‘rganiladi. Shu nuqtai nazardan “konsept” tushunchasi kognitiv lingvistikaning markaziy kategoriyalaridan biriga aylandi.

“Vaqt” konsepti insoniyat tafakkurining eng qadimiy va universal kategoriyalaridan biri hisoblanadi. U barcha tillarda mavjud bo‘lsa-da, har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, dini, madaniyati va dunyoqarashi ta‘sirida o‘ziga xos milliy-kognitiv xususiyatlarga ega bo‘ladi. O‘zbek tilida “vaqt” konsepti boy frazeologik fond, maqolmatallar, badiiy asarlar tili orqali namoyon bo‘lib, xalqning falsafiy-axloqiy qarashlarini o‘zida mujassam etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi — o‘zbek tilidagi “vaqt” konseptining lingvokognitiv tabiatini, uning til birliklarida ifodalanish yo‘llarini va konseptual metaforalar orqali shakllanadigan mental obrazlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda konseptual tahlil, komponent tahlil, frazeologik tahlil, shuningdek kontseptual metafora nazariyasiga asoslangan tahlil usullaridan foydalanildi. Manba sifatida o‘zbek tilining izohli lug‘atlari, frazeologik lug‘atlar, maqollar to‘plamlari va badiiy adabiyot namunalari o‘rganildi. O‘zbek tilshunosligida konseptual tahlil va lingvokulturologiya masalalari ko‘plab olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Tilshunos S. Rahimov o‘zining “ “Vaqt” konseptining lingvomadaniy modeli: ingliz va o‘zbek tillari qiyosi” nomli maqolasida “vaqt” tushunchasining ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiladi. Unda vaqt konseptining til, tafakkur va madaniyat uyg‘unligida aks etish modellarini yoritib beradi.

Tadqiqotchi Ch. Allayorova “Ingliz va o‘zbek maqollarida “vaqt” konseptining obrazli ifodalanishi” nomli maqolasida ingliz va o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim qismi bo‘lgan maqollarda vaqt falsafasi qanday aks etganligini lingvomadaniy yondashuv asosida korib chiqib, maqollar vositasida har ikki elat dunyoqarashidagi mushtarak va farqli jihatlarini tahlil qilib, ularning vaqtga bo‘lgan munosabatining tizimlashtirilganligi haqida yozadi. Z. Mamanova o‘zining “Nemis va o‘zbek tillarida vaqt konseptining lingvokulturologik talqini” nomli maqolasida nemis va o‘zbek tillari misolida “vaqt” konseptining lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganadi. Shuningdek, utadqiqotchi o‘z maqolasida “vaqt” tushunchasining semantik tarkibi, lisoniy-madaniy aloqalari hamda frazeologizmlar tizimidagi lisoniy ifodalanish qonuniyatlarini tahlil qilib yozadi.

M.Suyunova esa “Ingliz va o‘zbek tillarida vaqt tushunchasiga oid leksik birliklarning qiyosiy tahlili” nomli maqolasida ingliz va o‘zbek tillaridagi “vaqt” semantikasiga ega leksik qatlamni qiyosiy-tipologik jihatdan yoritishga e‘tibor qaratgan. Maqolada vaqt kategoriyasining har ikki til tizimida o‘ziga xos lisoniy vositalar va usullar orqali namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

D.Babaniyazovning “Ingliz va o‘zbek tillarida vaqt konsepsiyasiga oid paremiyalarning qiyosiy-lingvokulturologik tahlili” nomli maqolasida ingliz va o‘zbek tillarining paremiologik tizimida vaqt konseptining lingvistik ifodalanishi hamda lingvokulturologik jihatlari qiyosiy tahlil qilingan.

Muhokama va natijalar: Tadqiqotning dolzarbligi vaqt tushunchasining turli xalqlar milliy tafakkuri va dunyoqarashida egallagan mavqei, shuningdek, uning maqol va matal singari folklor namunalari vositasida qay tarzda namoyon bo‘lishini kognitiv yondashuv asosida tadqiq etish zarurati bilan izohlanadi:

1) “konsept” tushunchasining nazariy asoslari: kognitiv tilshunoslikda konsept insonning ongida mavjud bo‘lgan, madaniy tajriba, bilim, tasavvur va baholarni o‘zida jamlagan mental tuzilma sifatida talqin etiladi. Konsept faqat tushuncha (ponyatiye) bilan chegaralanmaydi — u obraz, assotsiatsiya, emotsional-baholovchi komponentlarni ham qamrab oladi. Konseptning tuzilishi odatda quyidagi qatlamlarga bo‘linadi:

Yadro (asosiy, prototipik ma’no) — konseptning eng barqaror, lug‘aviy ma’noda aks etgan qismi;

Yaqin periferiya — konseptning frazeologizmlar, maqollar orqali ifodalanadigan qismi;

Uzoq periferiya — individual, badiiy-obrazli assotsiatsiyalar, metaforik ifodalar.

“Vaqt” konsepti ana shu uch qatlamda ham boy material bilan namoyon bo‘ladi, chunki u insonning borliqni idrok etishidagi eng fundamental kategoriyalardan biridir.

2) “vaqt” konseptining leksik-semantik ifodalanishi: o‘zbek tilida “vaqt” konseptini ifodalovchi asosiy leksemalar qatoriga *vaqt, payt, fursat, muddat, zamon, davr, chog‘, on, lahza, asr* kabi so‘zlar kiradi. Bu leksemalarning har biri konseptning turli qirralarini — davomiylik, nuqtaviylik, imkoniyat, tarixiylik kabi ma’no nozikliklarini ifodalaydi. Masalan, *lahza* va *on* so‘zlari vaqtning eng kichik, bo‘linmas birligini bildirsa, *davr* va *zamon* uzoq tarixiy davrni, *fursat* esa vaqtning imkoniyat sifatidagi jihatini ifodalaydi. Bu holat o‘zbek tilida vaqt konsepti nafaqat xronologik, balki aksiologik (qadriyat) xarakterga ham ega ekanligini ko‘rsatadi — ya’ni vaqt shunchaki o‘lchov birligi emas, balki qadrlanishi yoki boy berilishi mumkin bo‘lgan qimmatli narsa sifatida idrok etiladi.

3) kontseptual metaforalar orqali “vaqt”ning obrazli ifodalanishi: kognitiv metafora nazariyasiga ko‘ra, inson mavhum tushunchalarni aniqroq, konkret tushunchalar orqali idrok etadi. O‘zbek tilida “vaqt” konsepti quyidagi asosiy metaforik modellar orqali namoyon bo‘ladi: **a) vaqt — harakatlanuvchi obyekt.** Vaqt inson tomon harakatlanuvchi yoki insondan uzoqlashuvchi narsa sifatida tasavvur qilinadi: *vaqt o‘tib ketmoqda, kunlar yaqinlashmoqda, yillar orqada qoldi* kabi iboralar bunga misol bo‘ladi. **b) vaqt — oqim (suv, daryo).** Vaqtning to‘xtovsiz, qaytarilmas oqimi suv obrazlari orqali ifodalanadi: *vaqt daryosi, umr daryosi, kunlar oqib o‘tmoqda.* **c) vaqt — qimmatbaho ne’mat (mol-mulk).** Vaqt sarflanadigan, tejaladigan, isrof qilinadigan boylik sifatida talqin etiladi: *vaqtni behuda sarflamoq, vaqtni g‘animat bilmoq, vaqt — oltin.* **d) vaqt — safar yo‘li.** Inson hayoti va vaqt safar sifatida idrok etiladi: *umr yo‘li, hayot yo‘lida,*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

oxiratga yo'l olmoq. **e)vaqt — shifo beruvchi kuch.** Vaqt insonning ruhiy va jismoniy og'riqlarini yengillashtiruvchi, dardiga malham bo'luvchi kuch sifatida tasavvur qilinadi. Ya'ni, vaqt o'tishi bilan insonning ko'nglidagi og'riq, xafalik, ayriliq yoki ruhiy jarohatlar asta-sekin kamayadi. Bu metaforik modellar o'zbek xalqining vaqtga bo'lgan munosabatini — uni tejash, qadrlash, oqilona sarflash zarurligini — aks ettiradi va bu jihat, ayniqsa, sharq falsafasi va islom dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq.

4) Frazologizmlar va maqol-matallarda “vaqt” konsepti: Frazologik birliklar konseptning milliy-madaniy xususiyatlarini eng yorqin aks ettiruvchi til vositalaridan hisoblanadi. O'zbek tilida vaqt bilan bog'liq juda ko'p frazeologizm va maqollar mavjud, ular quyidagi semantik guruhlarga bo'linadi:

a) vaqtning tezligi va qaytmasligi haqida: “*Vaqt — o'q, otlsa qaytmaydi*” kabi maqollar vaqtning qaytarib bo'lmazligini, uning har bir lahzasi takrorlanmasligini ta'kidlaymiz;

b) vaqtni qadrlash zarurati haqida: “*Vaqtni g'animat bil*” iborasi vaqtning tugab qoluvchi, cheklangan resurs ekanligini va undan unumli foydalanish lozimligini ifodalaydi;

c) vaqt va omad/fursat munosabati haqida: “*Fursatni qo'ldan boy berma*” kabi iboralar vaqtning imkoniyat sifatidagi jihatini, uni to'g'ri baholay bilish zarurligini ko'rsatadi;

d) vaqtning davolovchi kuchi haqida: “*Vaqt — eng yaxshi tabib*” tipidagi ifodalar vaqtning ijobiy, tiklovchi funksiyasini aks ettiradi. Bu frazeologik birliklarning barchasi o'zbek xalqining vaqtga nisbatan amaliy-falsafiy munosabatini, ya'ni vaqtni mehnat, sabr, aql-idrok bilan bog'liq holda qadrlash zarurligini namoyon etadi.

5) “Vaqt” konseptining milliy-madaniy xususiyatlari: O'zbek tilidagi “vaqt” konseptini tahlil qilish jarayonida uning bir qator milliy-madaniy xususiyatlarga ega ekanligi ma'lum bo'ladi: Vaqt tushunchasi ko'pincha tabiiy siklik jarayonlar (fasllar, quyoshning chiqishi va botishi, hosil yig'ish davrlari) orqali ifodalanadi, bu esa o'zbek xalqining an'anaviy dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq; Vaqt konsepti diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi — *namoz vaqtlari, ro'za oyi, umrning o'tkinchiligi* kabi tushunchalar buning yorqin dalilidir; Vaqtga nisbatan hurmat va sabr tuyg'usi ustuvorlik qiladi, bu esa g'arb madaniyatidagi vaqtni “tejash” va “boshqarish” kabi pragmatik yondashuvdan farq qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi “vaqt” konsepti murakkab, ko'p qatlamli mental tuzilma bo'lib, u leksik birliklar, frazeologizmlar, maqol-matallar va kontseptual metaforalar orqali til tizimida keng va xilma-xil tarzda ifodalanadi. Konseptning markazida vaqtning qaytarib bo'lmazligi, uning qimmatli resurs sifatidagi mohiyati va insonning unga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishi zarurligi g'oyasi yotadi. Bu esa o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy qarashlari, tarixiy tajribasi va diniy-falsafiy dunyoqarashi bilan uzviy bog'liqdir. “Vaqt” konseptining bunday lingvokognitiv tahlili nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, falsafa va etnopsixologiya sohalari uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Suyunova M. Ingliz va o'zbek tillarida vaqt tushunchasiga oid leksik birliklarning qiyosiy tahlili. INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE :Volume 03, Issue 05, 2026 – P: 89-93.
2. Mamanova Z. Nemis va o'zbek tillarida vaqt konseptining lingvokulturologik talqini. – Toshkent. 2026, aprel – B: 315-319.
3. Allayorova Ch. Ingliz va o'zbek maqollarida “vaqt” konseptining obrazli ifodalanishi. – Toshkent. 2026, may – B: 275-278.
4. Rahimov S. “Vaqt” konseptining lingvomadaniy modeli: ingliz va o'zbek tillari qiyosi. – “World of Philology” Scientific Journal, Volume 5 Issue 2 | February 2026 – P: 232-239. <https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.037>
5. Kubryakova E.S. Til va bilim: kognitiv yondashuv asoslari. – Moskva, 2004, 148-bet.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya asoslari. – Moskva, 2001, 57-bet.

